OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV FUNKSIYASINING XUSUSIYATLARI

Faxriddinova O'g'iloy Rizo qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyasining mazmuni, asosiy yo‘nalishlari va o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonida rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, motivatsiya, nazorat, tahlil va tartibga solish funksiyalarining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, oliy ta’limning ko‘p funksionalligi, professor-o‘qituvchilar va talabalar faoliyatining o‘ziga xosligi, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, raqamlashtirish, akademik mustaqillik, ta’lim sifatini ta’minlash va strategik rivojlanish kabi omillarning boshqaruv mazmuniga ta’siri ochib beriladi. Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruvni zamonaviy talablar asosida takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, boshqaruv, boshqaruv funksiyasi, strategik boshqaruv, rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, motivatsiya, nazorat, raqamli boshqaruv, ta’lim sifati, boshqaruv samaradorligi.

АННОТАЦИЯ:В статье рассматриваются содержание, основные направления и специфические особенности управленческой функции в высших образовательных учреждениях. Анализируется взаимосвязь функций планирования, организации, координации, мотивации, контроля, анализа и регулирования. Особое внимание уделяется влиянию специфики высшего образования, научно-исследовательской деятельности, цифровизации, академической самостоятельности и обеспечения качества образования на содержание управления. Обосновываются организационно-педагогические возможности совершенствования управления высшими образовательными учреждениями в соответствии с современными требованиями.

Ключевые слова: высшее образование, управление, управленческая функция, стратегическое управление, планирование, организация, координация, мотивация, контроль, цифровое управление, качество образования.

ABSTRACT: This article examines the content, main directions and specific features of the management function in higher education institutions. The relationship between planning, organization, coordination, motivation, control, analysis and regulation is analyzed. Particular attention is paid to the influence of the specific characteristics of higher education, research activities, digitalization, academic autonomy and quality assurance on management processes. The organizational and pedagogical opportunities for improving the management of higher education institutions in accordance with modern requirements are substantiated.

Keywords: higher education, management, management function, strategic management, planning, organization, coordination, motivation, control, digital management, education quality.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari nafaqat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilot, balki ilmiy-tadqiqot, innovatsion faoliyat, kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlik va hududiy rivojlanish jarayonlarida faol ishtirok etuvchi murakkab ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarini samarali boshqarish masalasi ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va muassasaning barqaror faoliyatini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari belgilangan [1]. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijadorligini oshirish va ta’lim sifatini yuksaltirishga qaratilgan vazifalar belgilangan [2]. Oliy ta’lim muassasasidagi boshqaruv jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘langan funksiyalar

tizimidan tashkil topadi. Bunda boshqaruv faqat ma’muriy topshiriqlar berish bilan chegaralanmaydi. U strategik maqsadlarni belgilash, mavjud resurslarni oqilona taqsimlash, professor-o‘qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, talabalar ehtiyojlarini hisobga olish, ta’lim sifatini monitoring qilish hamda rivojlanish natijalarini tahlil etishni o‘z ichiga oladi.Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Boshqaruv nazariyasida boshqaruv funksiyalari tashkilot faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etishning asosiy mexanizmlari sifatida qaraladi. M. Sharifxo‘jayev va Yo. Abdullayev boshqaruvning nazariy asoslari, asosiy funksiyalari, boshqaruv usullari, strategik boshqaruv hamda inson omilining tashkilot faoliyatidagi ahamiyatini yoritgan [3]. G‘.M. Qosimov boshqaruv jarayonida rejalashtirish, qaror qabul qilish, resurslardan foydalanish va boshqaruv munosabatlariga alohida e’tibor qaratadi [4]. Mazkur yondashuv oliy ta’lim muassasalarida boshqaruvni maqsad, resurs va natijalarni o‘zaro bog‘lovchi yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Ta’lim muassasalarini boshqarish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda boshqaruv jarayonining tashkiliy, pedagogik va psixologik jihatlari ham muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Xususan, rahbarning kasbiy kompetensiyasi, jamoa bilan ishlash qobiliyati, qaror qabul qilish, nazorat va monitoring mexanizmlaridan foydalanishi boshqaruv samaradorligiga ta’sir etadi. Zamonaviy oliy ta’lim boshqaruvida strategik rejalashtirish, loyiha asosida boshqarish, raqamli boshqaruv, sifat menejmenti, inson resurslarini rivojlantirish va innovatsion boshqaruv yondashuvlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda oliy ta’lim muassasasini boshqarish jarayonini rejalashtirishdan boshlab natijalarni baholashgacha bo‘lgan uzluksiz tizim sifatida tashkil etish muhimdir. Bunday yondashuv boshqaruv qarorlarining izchilligi va natijadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, analitik va tavsifiy yondashuvlardan foydalanildi. Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyasining xususiyatlarini aniqlash maqsadida pedagogik menejment, ta’lim boshqaruvi va oliy ta’lim rivojiga oid ilmiy adabiyotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini boshqaruvni o‘zaro bog‘langan funksiyalar tizimi sifatida talqin qilish tashkil etadi. Ushbu tizimda boshqaruv funksiyalari quyidagi ketma-ketlikda namoyon bo‘ladi:

maqsadni belgilash → rejalashtirish → tashkil etish → muvofiqlashtirish → motivatsiya → nazorat → tahlil → tartibga solish → strategik rivojlantirish. Mazkur ketma-ketlik boshqaruvning alohida funksiyalar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyasining mazmuni; Boshqaruv funksiyasi muassasaning belgilangan maqsadlariga erishishini ta’minlovchi rahbarlik, tashkiliy va muvofiqlashtiruvchi faoliyat yo‘nalishlari majmuasidir.

Oliy ta’lim muassasasida boshqaruv funksiyasi o‘ziga xos murakkablikka ega. Chunki bu yerda ta’lim, tarbiya, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya, xalqaro hamkorlik va ma’muriy-xo‘jalik faoliyati bir tizimda amalga oshiriladi.Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyalarini quyidagicha tizimlashtirishmumkin:

Boshqaruv funksiyasi| Oliy ta’lim muassasasidagi mazmuni

Rejalashtirish| Strategik va joriy maqsadlarni belgilash, o‘quv va ilmiy faoliyat rejalarini ishlab chiqish; Tashkil etish| Vazifalar, vakolat va mas’uliyatni taqsimlash

Muvofiqlashtirish| Fakultet, kafedra, bo‘lim va boshqa tuzilmalar faoliyatini uyg‘unlashtirish

Motivatsiya| Professor-o‘qituvchilar va xodimlarni faoliyatga rag‘batlantirish

Nazorat| Ta’lim, ilmiy va boshqaruv jarayonlarining bajarilishini kuzatish

Tahlil| Faoliyat natijalarini o‘rganish va muammolarni aniqlash

Tartibga solish| Aniqlangan muammolar asosida boshqaruv qarorlarini takomillashtirish

Rivojlantirish| Innovatsiya, raqamlashtirish va strategik yangilanishni ta’minlash

Rejalashtirish funksiyasi. Rejalashtirish oliy ta’lim muassasasi boshqaruvining boshlang‘ich funksiyalaridan biridir. U strategik maqsadlarni aniqlash, ustuvor vazifalarni belgilash, mavjud resurslarni baholash va kutilayotgan natijalarni oldindan belgilashni nazarda tutadi.

Oliy ta’lim sharoitida rejalashtirish faqat o‘quv jarayoni bilan chegaralanmaydi. U ilmiy-tadqiqot faoliyati, kadrlar siyosati, xalqaro hamkorlik, moddiy-texnik baza, raqamlashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish va ta’lim sifatini rivojlantirishni ham qamrab oladi.

Tashkil etish funksiyasi. Tashkil etish funksiyasi belgilangan maqsadlarga erishish uchun inson, moddiy, axborot va moliyaviy resurslarni tegishli yo‘nalishlarga biriktirishni anglatadi.

Oliy ta’lim muassasasida rektorat, fakultetlar, kafedralar, ilmiy bo‘limlar, markazlar va boshqa tarkibiy tuzilmalar o‘zaro bog‘langan holda faoliyat olib boradi. Shu sababli vakolat va mas’uliyatning aniq taqsimlanishi boshqaruv samaradorligining muhim sharti hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasining ko‘p yo‘nalishli faoliyati turli tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasidagi doimiy hamkorlikni talab qiladi. Ta’lim jarayoni, ilmiy faoliyat, talabalar bilan ishlash, xalqaro aloqalar va ma’muriy faoliyat bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona tizim sifatida boshqarilishi lozim.Shu nuqtai nazardan, muvofiqlashtirish funksiyasi turli bo‘linmalar faoliyatidagi takrorlanish, qarama-qarshilik va axborot uzilishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasasida inson omili boshqaruvning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Professor-o‘qituvchining ilmiy va pedagogik faolligi, tashabbuskorligi va kasbiy rivojlanishga intilishi ko‘p jihatdan mavjud motivatsion

muhitga bog‘liq. Motivatsiya moddiy rag‘batlantirish bilan cheklanmaydi. Kasbiy rivojlanish imkoniyati, ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, akademik tashabbuslarni rag‘batlantirish, mehnat natijalarini e’tirof etish va sog‘lom jamoaviy muhit yaratish ham boshqaruvning motivatsion mexanizmlariga kiradi.

Nazorat boshqaruv qarorlarining amalda qanday bajarilayotganini aniqlash imkonini beradi. Oliy ta’lim muassasasida nazorat ta’lim sifati, o‘quv yuklamalari, ilmiy faoliyat, mehnat intizomi, hujjatlar yuritilishi va belgilangan strategik ko‘rsatkichlarning bajarilishini qamrab olishi mumkin.

Zamonaviy boshqaruvda nazoratni faqat kamchiliklarni aniqlash yoki jazolash vositasi sifatida emas, balki mavjud holatni baholash, muammolar sababini aniqlash va faoliyatni takomillashtirish mexanizmi sifatida tashkil etish muhimdir.

Tahlil va tartibga solish funksiyasiTahlil natijasida boshqaruv faoliyatining kuchli va muammoli jihatlari aniqlanadi. Talabalar o‘zlashtirishi, professor-o‘qituvchilarning ilmiy faolligi, ta’lim sifati, bitiruvchilarning bandligi va xalqaro hamkorlik ko‘rsatkichlari boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun muhim axborot manbai bo‘lishi mumkin.

Tahlil natijalariga asoslangan holda boshqaruv jarayoniga tuzatishlar kiritiladi. Shu sababli tahlil va tartibga solish boshqaruvning keyingi rivojlanish bosqichini belgilovchi funksiyalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi boshqaruvni boshqa tashkilotlar boshqaruvidan ajratib turuvchi bir qator xususiyatlar mavjud.

Birinchidan, faoliyatning ko‘p funksionalligi. OTM bir vaqtning o‘zida ta’lim, ilmiy tadqiqot, tarbiyaviy ishlar, innovatsiya va xalqaro hamkorlik bilan shug‘ullanadi.

Ikkinchidan, inson omilining yuqori darajadagi ahamiyati. Oliy ta’lim muassasasining asosiy resurslaridan biri professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning intellektual salohiyatidir.

Uchinchidan, ilmiy va ijodiy faoliyatning mavjudligi. Ilmiy-tadqiqot natijalarini har doim ham qisqa muddatli yoki faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan baholab bo‘lmaydi. Shu sababli boshqaruvda uzoq muddatli natijalarni ham hisobga olish zarur.

To‘rtinchidan, manfaatdor tomonlarning ko‘pligi. Talabalar, professor-o‘qituvchilar, ish beruvchilar, davlat tashkilotlari, hamkor tashkilotlar va jamiyat oliy ta’lim faoliyatining turli jihatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, raqamlashtirishning boshqaruvga ta’siri. Elektron hujjat aylanishi, ta’lim platformalari, ma’lumotlar bazalari va raqamli monitoring tizimlari boshqaruv qarorlarining tezkorligi va axborot bilan ta’minlanganligini oshirish imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanishi strategik boshqaruv bilan chambarchas bog‘liq. Strategik boshqaruv muassasaning mavjud holatini baholash, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish, ustuvor maqsadlarni belgilash hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Strategik boshqaruvning muhim jihati shundaki, u joriy muammolarni hal qilish bilan bir qatorda muassasaning kelajakdagi holatini ham ko‘zda tutadi. Bunda ta’lim sifati, ilmiy salohiyat, kadrlar rivoji, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va resurslardan foydalanish kabi yo‘nalishlar yagona strategik tizimda ko‘rib chiqiladi.Shu bilan birga, strategik boshqaruv samaradorligi faqat reja mavjudligi bilan emas, balki uning bajarilishini monitoring qilish, natijalarni baholash va zarur hollarda boshqaruv qarorlariga tuzatishlar kiritish bilan belgilanadi.

Raqamlashtirish oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyalarining mazmunini ham o‘zgartirmoqda. Elektron hujjat aylanishi, ma’lumotlar bazalari, ta’lim platformalari va raqamli monitoring vositalari boshqaruv jarayonining tezkorligini oshirish imkonini beradi.Bunda raqamli texnologiyaning o‘zi boshqaruv samaradorligini avtomatik tarzda ta’minlamaydi. Muhim jihat mavjud ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish va ular asosida asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv oliy ta’lim muassasasining real holatini aniqlash,

mavjud muammolarni erta aniqlash va resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

ILMIY YANGILIK: Tadqiqotning ilmiy yangiligi oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyalarini yagona uzviy tizim sifatida talqin qilish hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini oliy ta’limning ko‘p funksionalligi, inson omili, ilmiy faoliyat, raqamlashtirish va strategik rivojlanish omillari bilan bog‘liq holda tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot natijasida oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyalarining quyidagi konseptual modeli taklif etiladi:

Maqsadni belgilash → rejalashtirish → tashkil etish → muvofiqlashtirish → motivatsiya → nazorat → tahlil → tartibga solish → strategik rivojlantirish.

Mazkur modelda har bir funksiya keyingi boshqaruv bosqichi bilan bog‘langan bo‘lib, boshqaruv jarayonining uzluksizligi va qayta aloqa mexanizmini ta’minlaydi.

AMALIY AHAMIYATI: Maqolada ilgari surilgan xulosalardan oliy ta’lim muassasalari rahbarlari, fakultet va kafedra mudirlari, ta’lim menejmenti bo‘yicha mutaxassislar hamda pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar foydalanishlari mumkin.

Boshqaruvni takomillashtirish uchun:

1. strategik rejalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish;
2. boshqaruv qarorlarini ma’lumotlar asosida qabul qilish;
3. professor-o‘qituvchilarni kasbiy va ilmiy rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash;
4. raqamli boshqaruv vositalaridan samarali foydalanish;
5. ichki monitoring va tahlil tizimini rivojlantirish;
6. tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish;
7. talabalar va boshqa manfaatdor tomonlar fikrini boshqaruv qarorlarida hisobga olish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv funksiyasi murakkab va ko‘p tarkibli jarayon bo‘lib, u rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, motivatsiya, nazorat, tahlil, tartibga solish va rivojlantirish funksiyalarining o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi.Oliy ta’limning o‘ziga xosligi boshqaruv jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim va ilmiy faoliyatning uyg‘unligi, professor-o‘qituvchilarning intellektual salohiyati, talabalar ehtiyojlarining xilma-xilligi, xalqaro hamkorlik, raqamlashtirish va ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar boshqaruvning an’anaviy shakllarini takomillashtirishni talab etadi.Shu jihatdan oliy ta’lim muassasasida boshqaruvni faqat ma’muriy nazorat bilan cheklamasdan, strategik rejalashtirish, inson resurslarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, sifatni boshqarish va innovatsion rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Samarali boshqaruvning asosiy sharti boshqaruv funksiyalarining alohida-alohida emas, balki yagona va uzluksiz tizim sifatida amalga oshirilishidir. Bunday yondashuv oliy ta’lim muassasasining ichki imkoniyatlarini safarbar qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va strategik maqsadlarga erishish uchun tashkiliy-pedagogik asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. 08.10.2019.
3. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
4. Qosimov G‘.M. Menejment. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
5. Kenjaboyev A.E., Karimova B.X. Pedagogik menejment asoslari. – Toshkent: IRFON-PRINT, 2023.

6. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. va boshq. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent.
7. Buxorov I.N. Ta’lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish. – 2023.
8. Nishonova D.S. Ta’lim muassasalarida diagnostika va monitoring asosida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish. – 2023.
9. Fayol H. General and Industrial Management. – London: Pitman, 1949.
10. Drucker P.F. The Practice of Management. – New York: Harper & Brothers, 1954.
11. Cameron K.S., Quinn R.E. Diagnosing and Changing Organizational Culture. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
12. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023.
13. UNESCO IIEP. Strategic Planning: Concept and Rationale. – Paris: UNESCO International Institute for Educational Planning.